


QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH
KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY
JIHATLARI

SH.Y.KURBANOVA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ORIENTAL UNIVERSITETI

KURBANOVA SHAXNOZA YULDASHBAYEVNA

**QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA
INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING
ILMIY-USLUBIY JIHATLARI**

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2026

UO'K: 005.591.6:691

KBK: 65.290-2+38.39

ISBN: 978-9910-8599-0-8

Sh.Y.Kurbanova Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy jihatlarini. (Monografiya), T., Oriental universiteti, 2026. 155-bet.

Mazkur monografiya qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini asosida mahsulot sifatini yaxshilash hamda raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha yondashuvlar atroficha yoritilgan. Shuningdek, monografiyada innovatsion boshqaruv uslublari, texnologik modernizatsiya va resurslardan samarali foydalanish orqali korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari ilmiy asoslangan holda tahlil etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari sanoat tarmog'ida innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu monografiya ilmiy xodim-izlanuvchilar, professor-o'qituvchilar, talabalar va magistrantlar hamda qurilish sanoati va innovatsion menejment sohasiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

M.Eshov-i.f.d., prof.

Muallif:

Sh.Kurbanova

Taqrizchilar:

A.Shernayev- Oriental universiteti professori, i.f.d.

S.Gulyamov - Toshkent davlat agrar universiteti i.f.d., prof.
akademik

J.Kurbanbayev- Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
i.f.n., dotsent.

Monografiya Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 29 -avgustdagi №1 - sonli qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

© "Phoenix scientific publication center" MChJ 2026 y.

MUQADDIMA

Jahonda raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalarga investitsiya kiritish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshmoqda. "Global innovatsion indeks"¹ ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda innovatsiyalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish bo'yicha umumjahon reytingida Shveysariya (67,6 foiz), Shveysiya (64,2 foiz), AQSH (63,5 foiz), Buyuk Britaniya (62,4 foiz) va Singapur (61,5 foiz) yetakchi ulushga ega bo'ldi. O'zbekiston ushbu reytingda 26,2 foiz ko'rsatkich bilan 82-o'rinni egalladi. Qayd etish kerakki, mamlakatimiz ushbu reytingdagi 2022-yilda qayd etgan natijasini saqlab qoldi, bu esa 2021-yildagi 86-o'ranga qiyoslaganda sezilarli o'sish hisoblanadi. Aynan shu jihat mamlakatimizning "innovatsiyalar jadal sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakat"²lar toifasiga kirish imkonini berdi.

Qurilish materiallari sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahon miqyosida izchil olib borilmoqda. Sanoatda samaradorlikni oshirishmoqchi bo'lsak, buning uchun eng samarali usullar va vositalarni aniqlab olish va bu boradagi innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda ularni sanoat korxonalarida qo'llash bo'yicha turli xil metodlar yaratish muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, mahsulot sifatini is'temolchi xohishlariga moslashtirish, korxonalarda innovatsion jarayonlarni tashkil qilish uchun menejment va iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirish va ularning beradigan samarasini baholash usullarini takomillashtirish masalalari hozirgi kundagi tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlarining muhim mavzusiga alyanib ulgurgan.

O'zbekistonda qurilish ishlari hajmi ortib borgani sari ushbu sohaning eng muhim material yetkazib beruvchi tarmog'i hisoblangan qurilish materiallari ishlab chiqarishga ham ehtiyoj oshib bormoqda. Hozirgi kunda global iqtisodiyotda ro'y berayotgan o'zgarishlar qurilish materiallariga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirib yubormoqda. Bu esa, o'z navbatida, soha ishlab chiqarish hajmini

¹ <https://www.wipo.int/ru/web/global-innovation-index/2023/index>
² <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-2000-2023/uz.pdf>

kengaytirish va shu bilan birga sohaga oid korxonalar faoliyatining samaradorligini yanada oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunda hozirgi kunda eng muhim masala ilmiy izlanishlarda ishlab chiqarish sanoatidagi korxonalarda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy qilish munosabati bilan ularni modernizatsiyalash va unda erishiladigan samaradorlikka jiddiy yondashilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonining "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" deb nomlangan 2-bandi "Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish" bo'yicha 48-maqсадida "Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejankor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish"³ vazifasi alohida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4198-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335-son qarori, 2022-yil 21-fevraldagi "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-139-son qarori, 2022-yil 17-noyabrdagi "Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-425-son qarori va mazkur tarmoqqa tegishli boshqa me'joriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni

I BOB. SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy asoslari

Dunyo iqtisodiyoti globallashtirib bormoqda. Tabiiy resurslar va energiya manbalarining narxлари o'zgarishi, ijtimoiy hamda iqtisodiy tizimlar rivojlanishining asosiy omili bo'lib, ularning zamonaviylashtirishga tayyorligini ta'minlaydi. Bu sohada yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Sanoat korxonalarini yuqori sifatli mahsulotlar yaratib, tarmoqdagi o'rinni kuchaytirishi, mahalliy va xalqaro bozorlarida yangi segmentlarni egallash funktsiyatiga ega bo'ladi. Yangi infratuzilmaning rivojlanishi esa raqobat muhitida korxonalariga muhim ustunliklar yaratib, ularning jahon miqyosida doimiy o'sish rejalarini shakllantirishga yordam beradi.

Yangi faoliyat turlarining samaradorligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Hududlarda innovatsion va yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorini kengaytirish, startap va kichik innovatsion korxonalarini o'zaro manfaatdor "pilotsoz" (qamrab olib o'zlashtirish) mexanizmi asosida innovatsion klasterlar tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish"⁴ vazifasi belgilangan.

Innovatsiya kontseptsiyasining mazmuni, mohiyati va muhimligini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, bu tushunchaning tadqiqotchilar va amaliyotchilar orasida mustahkam o'rnatilishiga yordam berdi. "Innovatsiya", "innovatsion jarayon", "innovatsion faoliyat" atamalarini mustaqil ilmiy paradigmani shakllantirgan ammo tadqiqotimiz doirasida yuqoridagi atamalarni korxonalar faoliyatining muhim elementi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish lozim, deb hisoblaymiz.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son qarori

MUQADDIMA.....	3
I BOB. SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	5
1.1. Korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy asoslari.....	5
1.2. Sanoat korxonasida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashga uslubiy yondashuvlar.....	17
1.3. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	28
II BOB. RESPUBLIKA QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING TAHLILI.....	41
2.1. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion faoliyatni tashkil etishning joriy holati tahlili.....	41
2.2. Qurilish materiallari sanoatida innovatsion loyihalarni joriy etish amaliyoti va tahlili.....	51
2.3. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash yo'llari.....	64
III BOB. QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	75
3.1. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish.....	75
3.2. Korxonalarda raqamli innovatsiyalar asosida energiya tejash tizimini loyihalashni takomillashtirish.....	89
3.3. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini prognozlash ssenariylari.....	128
XOTIMA.....	139
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	142

MONOGRAFIYA

Bosishga ruxsat etildi: 17.01.2026-yil.

Ofset bosma qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84^{1/16}.

"Times New Roman" garniturasida. Ofset bosma usuli.

Hisob nashriyot t.: 16,0. Shartli b.t.: 10,2.

Adadi: 100 nusxa. Buyurtma 16.

ISBN: 978-9910-8599-0-8

"Phoenix scientific publication center" MChJ.

Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumani, Istiqlol ko'chasi 102-uy.



PHOENIX
NASHRIYOTI

